ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Umarova H. O'. –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Umarova H. O‘. –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari ......... 16
Doniyorov Salim Musurmonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish ......... 23
Nazarov Odil Omanqulovich

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni ......... 27
Abirova Umida Nazarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati ......... 30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari ......... 34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati ......... 38
Salimova Dilmira Farxodovna

Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar ......... 41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati ......... 44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar ......... 48
E. Po'latova

Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ... 51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna

O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar ......... 55
G'aynidinov Shayxislom Tolibjon o'g'li

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi ......... 60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons ......... 63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi

Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish ......... 67
Nomozova Dilobar Suyun qizi

Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar ......... 72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories ......... 75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li

Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature ......... 80
Ruzieva Maftuna

Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari ......... 85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna

Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) ......... 88
Sharipova Hakima Shavkatovna

Metacognition and Self-Regulated Learning ......... 92
Turayeva Nazira Ibragimovna

Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ......... 95
Меденцева Наталья Петровна

Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari ......... 100
Jonibekov Jasur Jonibekovich

O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi....105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi....108
Bakayev Najmiddin

Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida....112
Egamova Madina Qobil qizi

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari....116
Egamova Shukriya Amanovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari....119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi

Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish....124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich

Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari....128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna

Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari....131
Ikromova Munisa Sheraliyevna

Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari....134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna

Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar....138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish....141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna

Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi....145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna

Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari....148
Mamadiyorov Jamol

Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari....152
Sharipova Firuza Mehriddinovna

Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli....155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li

Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida....159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna

Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari....162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi....166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna

Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari....170
Yodgorova Gulrux Farhodovna

Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования....174
Юлдашев Эргаш Сабирович

O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati....177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida....180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna

Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar....185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi

The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes....189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari ........ 192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi........ 196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi

# MAKTABGACHA TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xallokova Maksudaxon Ergashevna
Farg'ona davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari, uning ahamiyati hamda joriy etish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammolar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, individual yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yechim va mexanizmlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, maktabgacha yosh, individual yondashuv, "Ilk qadam", pedagogik muammo, innovatsion metodika.

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations of a learner-centered approach in the modern preschool education system, its significance, and the pedagogical challenges encountered during implementation. The paper also presents innovative solutions and mechanisms aimed at enhancing the effectiveness of education through an individualized approach.

**Key words:** learner-centered education, preschool age, individualized approach, "Ilk qadam", pedagogical challenge, innovative methodology.

**Аннотация:** В данной статье проведён глубокий анализ теоретических основ личностно-ориентированного подхода в современной системе дошкольного образования, его значимости и педагогических проблем, возникающих в процессе внедрения. Также представлены инновационные решения и механизмы, направленные на повышение эффективности обучения на основе индивидуального подхода.

**Ключевые слова:** личностно-ориентированное обучение, дошкольный возраст, индивидуальный подход, "Ilk qadam", педагогическая проблема, инновационная методика.

## KIRISH

Yurtboshimiz tashabbusi bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasi asosida aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish va iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan to'rtinchisi – "Sifatli ta'lim"ga bag'ishlangan bo'lib, unga muvofiq, 2030-yilga qadar umumiy maktabgacha ta'limni ta'minlash uchun qulay siyosiy muhit hamda tizimli tarkibiy qismlarni yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Yangi milliy o'quv dasturlari va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan talablarni to'g'ri bajarish orqaligina ularni rivojlantirish bo'yicha asosiy maqsadlarga erishish mumkin. Bolalarning maktabga tayyorgarligini ta'minlashda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoniga malakali pedagoglarni jalb etish zarur.

Maktabgacha ta'lim pedagogining asosiy vazifasi – bolaga kundalik faoliyatini tashkil etishda ko'mak berishdan iboratdir. Bu esa bolalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim poydevor hisoblanadi. Bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagoglarga muntazam yordam ko'rsatish, ushbu jarayonning uzluksizligini ta'minlash, shuningdek, "pedagog–bola" hamkorligining turli ta'limiy va mustaqil faoliyatlardagi ahamiyatini tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim guruhlarida o'quv jarayonini puxta va aniq rejalashtirish masalasi esa dolzarb sanaladi.

Tez o'zgaruvchan dunyo sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kattalar va bolalar o'rtasidagi integrativ o'zaro ta'sirni ta'minlash, shuningdek, muayyan bir mavzu doirasida bir kun ichida barcha faoliyat yo'nalishlarini uyg'unlashtirgan holda faoliyatlar rejasini ishlab chiqish vazifasi turibdi. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvni joriy etishni talab qiladi [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga doir manbalarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarixda yaratilgan pedagogik-psixologik nazariyalar bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Darhaqiqat, qadimgi Yunonistonda buyuk faylasuflar tomonidan bola psixikasi va rivojlanishiga doir ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Taniqli faylasuf Geraklit (Heraclitus) bola qalbi dastlab nam va xul bo'lib, asta-sekin olovga aylanishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bola ta'lim-tarbiya ta'sirida fikrlash va mulohaza qilishga o'rganadi, unda tafakkur qilish layoqati shakllanadi. Geraklit ilk bora bolada nafaqat qalbiy rivojlanish, balki psixik rivojlanishni tafakkur bilan bog'lab, uni intellektual rivojlanish bilan tenglashtirgan.

Buyuk allomalarimiz – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Kaykovus ibn Iskandar, Abul-Qosim Umar az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Muhammad ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabi mutafakkirlarning ilmiy merosida bolalar tarbiyasiga oid qimmatli pedagogik g'oyalar bayon etilgan.

MDH olimlari orasida N.N. Vinogradova maktabgacha yoshdagi bolalarning katta hayotga moslashuvi, oilada shakllanishi, kattalar bilan muloqotga kirishish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, shuningdek, ushbu davrda ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning shakllanishiga oid muhim masalalarni ilmiy asosda tadqiq etgan. U, shuningdek, boshqa olimlarning ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarini ham keng miqyosda tahlil qilgan [2].

A.M. Vinogradova, N.V. Miklyaeva va N.F. Mulkol o'z ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-madaniy tarbiyalashda, ularning his-tuyg'ularini rivojlantirishda asosiy manba bo'lgan aqliy mehnat faoliyatlari – rasm chizish, plastilin bilan ishlash va applikatsiya bilan shug'ullanish orqali nafaqat vizual taassurotlar, balki atrof-muhitni his etish, kuzatilayotgan hodisalarni ifodalash ko'nikmalari shakllanishini isbotlaganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan ilmiy adabiyotlar sharhi, mavjud davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or pedagogik tajribalarning tahlili orqali yig'ildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar fikrlari va kuzatuv natijalari asosiy axborot manbai sifatida xizmat qildi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy tahlil usuli orqali o'rganilib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning amaliy samaradorligi, mavjud muammolari va takomillashtirish yo'nalishlari aniqlashtirildi. Tahlil jarayonida solishtirma, mantiqiy va umumlashtiruvchi usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy xususiyatlari orasida bolalarning qiziqishlariga mos keladigan o'quv uslublarini tanlash, ular bilan doimiy dialog o'rnatish, ularning mustaqil fikrlash va o'z bilimlarini baholash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlarni tashkil etish alohida o'rin tutadi. Bunday yondashuv bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch, qobiliyatlarini namoyon qilishga bo'lgan ishtiyoq va mustaqillik hissini shakllantiradi. Natijada, ta'lim bolaning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashib, uni zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan yetuk shaxs sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhim ahamiyat kasb etib, bolalarning nafaqat bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi, balki ularni ijtimoiy jihatdan faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish masalasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu yo'nalishda pedagogik va metodik izlanishlar davom ettirilmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari hamda rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni shakllantirishga qaratishidir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishi bilan bog'liq. Har bir bolaga uning xususiyatlari, hayotiy qadriyatlari va intilishlarini aniqlash asosida o'z rivojlanish yo'lini tanlash huquqini berish zarur [3].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda faollik markazida tarbiyalanuvchining o'zi turadi, ya'ni bola shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob hayotiy tajribasi bilan. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni "bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish" modelidan "bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan" modelga yo'naltirilishi zarur [4].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi – bolani o'ziga xos shaxs sifatida shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini anglash, rivojlantirish, moslashish, o'zini boshqarish, himoya qilish va tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat. Bu yondashuvda har bir bolaga o'z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish va individual xususiyatlariga muvofiq o'z yo'lini tanlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi, chunki bola jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda bolalar ijtimoiy loyihalarda ishtirok etadilar, o'z qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadilar va ijtimoiy muammolarni hal qilishda o'z hissalarini qo'shadilar. Shu bilan birga, bolalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli bizning ta'lim tizimimizda tanish bo'lgan "bolaga ta'lim va intizomiy yondashuv"ni yengib o'tishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalariga ega bo'lishga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga undaydi. Bola – kattalar singari jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lganligi sababli, uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani "yuqoridan" emas, balki yonma-yon va hamkorlik asosida olib borishni anglatadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda innovatsion texnologiyalar va interaktiv usullar keng qo'llaniladi. Bu bolalarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashga va ta'lim jarayonida ularning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida bolalar interaktiv o'yinlar va virtual olamlar orqali o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, didaktik o'yinlar, dasturiy ta'minot va raqamli resurslar yordamida bolalarning qiziqishlariga mos ta'lim berish imkoniyati kengayadi.

Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bola shaxsining to'laqonli rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, unga o'z qobiliyatlarini ochish va ularni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv jamiyatda faol, mustaqil fikrlaydigan va o'z mas'uliyatini anglaydigan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Bu ikki yondashuv bolalar bilan ishlashdagi turli metodlar va maqsadlarga asoslanib, o'ziga xos pedagogik prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi. Quyida ushbu yondashuvlarning asosiy farqlari keltirilgan:

- **An'anaviy yondashuv:** An'anaviy ta'limning asosiy maqsadi – bolalarni tayyor dasturlar asosida o'rgatish va ular uchun belgilangan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlashdir. Bu yondashuvda barcha bolalarga umumiy bilimlar bir xil shaklda o'rgatiladi va ta'lim jarayonida tarbiyachining roli yetakchi hisoblanadi.
- **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv:** Bu yondashuvning asosiy maqsadi – har bir bolaning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq ta'lim berishdan iborat. Har bir bola o'z qobiliyatlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi va ta'lim jarayoni orqali shaxs sifatida shakllanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi farqlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, an'anaviy yondashuv qat'iy va standartlashtirilgan ta'lim jarayoniga asoslangan bo'lsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgandir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bolaning o'z qiziqishlari va qobiliyatlari asosida ta'lim olishini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada bola kelajakda ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda tamoyillar bolaning shaxsiy rivojlanishi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini to'liq qondirishga xizmat qiluvchi asos sifatida qaraladi. Bu yondashuvda har bir bolaning noyobligini tan olish, uning qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishiga sharoit yaratish ta'limning bosh maqsadidir. Ushbu tamoyillarni chuqur anglash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va bolaning individual ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-dekabrdagi 1056-sonli qarori.
2. Vinogradova N.N. Programma vospitaniya i obucheniya v detskom sadu. – Moskva: Prosveshchenie, 1989. – 320 b.
3. Xallokova M.E., Turg'unova N.M., Qodirova S.M. Pedagogik zaruriyat sifatida maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. – 2024.
4. Xallokova M.E., Qodirova S.M. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tarbiya va ta'limni rejalashtirish xususiyatlari tahlil qilingan ilmiy maqolalar. – 2023–2024.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.